

BADIIY ASARLAR VOSITASIDA O'QUVCHILARNI MILLIY VA UMUMBASHARIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH

Xoliqov Asliddin Turayevich

Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani 34-umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Bugungi globallashtirish jarayoni g'oyat shiddat bilan rivojlanayotgani va bu jarayon axborot almashinuvni ham beqiyos darajada tezlashtirib yuborayotgani hech kimga sir emas. Mana shunday sharoitda kerakli va foydali axborotni tanlay olish insondan yuksak ma'naviy daraja, bilim va tafakkurni talab etadi. O'quvchilarni ana shunday yuksak salohiyatga, ijobiy insoniy sifatlarga ega, milliy va umumbashariy qadriyatlarga sodiq insonlar qilib tarbiyalashda badiiy adabiyotning o'rni va salmog'i beqiyos. Kompyuter va zamonaviy gadjetlar, telefonlar hayotimizning ajralmas bo'lagiga aylangan hozirgi zamonda o'quvchilarni kitobga qiziqtirish oson ish emas. Bu ona tili va adabiyot fani o'qituvchisidan ancha mehnat, bilim va muammoga zamonaviy, yangicha yondashuvni talab qiladi.

Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim maktablari darsliklari jahon tajribasi asosida qayta nashr qilinmoqda va asosiy e'tibor o'quvchilarning kreativ fikrlashi va mustaqil xulosa chiqara olish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilmoqda. Masalan, maktablarning 6-7 – sinflari uchun chiqarilgan adabiyot darsliklarini olishimiz mumkin. 6-sinf adabiyot darsligidagi “O'g'ri” (Abdulla Qahhor), “Dunyoning ishlari” (O'tkir Hoshimov), “Bir kunlik yoz” (Rey Bredberi) asarlarini o'qish, tahlil va muhokama qilish orqali o'quvchilarda mazkur asarlar mualliflarining boshqa ijod namunalari ham topib o'qishga qiziqish va rag'bat uyg'otish mumkin.


Buning uchun badiiy asardagi obraz va voqealar real hayotda ham uchrashi mumkinligi, adabiyotning tasvir ob'yekti inson ekanligini o'quvchilar ongiga chuqur singdirish lozim. Mana shu maqsadda asarlarni rollarga bo'lib o'qish, sahnalashtirish, audiomatnlarni tinglash, Venn diagrammasi, bumerang, blits-so'rov usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

7-sinf adabiyot darsligida berilgan “Chol va dengiz” (Ernest Hemenguey), “Ota” (Nabi Jaloliddin) asarlari qahramonlariga ta'rif berish, ularning xatti-harakatlarini mustaqil tahlil qilish hamda xulosa chiqarish orqali o'quvchilar insonparvarlik, iroda va matonat, bag'rikenglik, yoshi ulug'larga hurmat, ertangi kunga ishonch, o'zgarlar taqdiriga befarq bo'lmaslik, har qanday sharoitda ham o'zini va o'zligini yo'qotmaslik kabi yuksak insoniy fazilatlarini anglab, ruhiga singdirib boradi.

European science international conference:
ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION



Haqiqiy inson hamisha boshqalarga beg'araz yordam bera oladigan darajada mard, olijanob va bag'rikeng bo'lishi lozim. Shu bilan birga o'z hayotini ham go'zallashtirishi,



hayotdan zavq- shavq olib yashay olishni ham uddalay olishi kerak. Bu ko'nikmalarni ularning qalbiga adabiyot va san'at bilan singdirish har bir adabiyot fani o'qituvchisining oldidagi dolzarb vazifadir.

Nabi Jaloliddinning 7-sinf adabiyot darsligida keltirilgan "Ota" hikoyasini o'quvchilarga yetib boradigan tarzda tushuntirish o'qituvchidan alohida tayyorgarlik va mahoratni talab qiladi. O'qituvchi bu mavzuni tushuntirib berishda milliy an'ana va qadriyatlar hamda o'zbek tili shevalarining mohir bilimdoni, mahoratli aktyor sifatida namoyon bo'lishi lozim. Shu bilan birga hikoya qahramoni bo'lgan OTA qalbida kechayotgan his-tuyg'ularni o'quvchilar ongiga mohirona yetkaza oladigan uddaburon dil tarjimoni bo'la olishi ham zarur. Mavzuni o'tishda milliy an'ana va qadriyatlarimiz, shu bilan birga o'zbek qishloq uylari tasvirlangan suratlar, Andijon shevasida tayyorlangan audiomatndan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi ana shu vositalar yordamida hikoya qahramonining haqiqiy o'zbek otalari timsolidagi boshqalarga yordam qo'lini cho'zishga hamisha tayyor, mard, oqil-u dono HAZRATI INSON ekanligini o'quvchilar ongiga singdiradi.

O'quvchilar qalbiga adabiyotni qirq besh daqiqalik fan emas, ko'ngil ishi, ma'naviy yuksaklik darajasi sifatida singdira olgan ustoz haqiqiy ustoz maqomiga ko'tariladi, shogirdlari uning saboqlarini umrbod eslab yurishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinflari uchun darslik. Toshkent. 2022-yil.
2. Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinflari uchun darslik. Toshkent. 2022-yil.
3. Ziyo.uz, kitob.uz internet saytlari.